

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 248 sahifa.
2025-yil, 13-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	

XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
qoshidagi "Diplomatik servis xizmati" DUKning
Transport va Bojxona boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqaro savdo nazariyasining tarixiy rivojlanishini hamda zamonaviy global tendensiyalarni nazariy jihatdan tahlil qiladi. Hozirgi sharoitda savdo jarayonlariga ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillar — raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratning kengayishi, global ishlab chiqarish zanjirlarining qayta shakllanishi, "yashil" standartlar va uglerod chegarasi mexanizmlarining joriy etilishi, shuningdek, geoiqtisodiy raqobat va proteksionizm tendensiyalari — batafsil o'rganiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro savdo, mutlaq afzallik, nisbiy afzallik, raqobat ustunligi, yangi savdo nazariyasi, masshtab samarasi, monopolistik raqobat, kesishuvchi talab, raqamli iqtisodiyot, yashil savdo, global ta'minot zanjiri, geoiqtisodiy raqobat.

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the historical development of international trade theory and modern global trends. It examines the factors influencing trade processes in the contemporary context, such as the expansion of the digital economy and e-commerce, the restructuring of global production chains, the implementation of "green" standards and carbon border mechanisms, as well as geo-economic competition and protectionist tendencies.

Keywords: international trade, absolute advantage, comparative advantage, competitive advantage, new trade theory, economies of scale, monopolistic competition, overlapping demand, digital economy, green trade, global value chain, geo-economic competition.

Аннотация: В данной статье теоретически анализируется историческое развитие теории международной торговли и современные глобальные тенденции. Рассматриваются факторы, влияющие на торговые процессы в современных условиях, такие как расширение цифровой экономики и электронной коммерции, трансформация глобальных производственных цепочек, внедрение «зелёных» стандартов и углеродных механизмов, а также геоэкономическая конкуренция и тенденции протекционизма.

Ключевые слова: международная торговля, абсолютное преимущество, сравнительное преимущество, конкурентное преимущество, новая теория торговли, эффект масштаба, монополистическая конкуренция, пересекающийся спрос, цифровая экономика, «зелёная» торговля, глобальная производственная цепочка, геоэкономическая конкуренция.

KIRISH

Xalqaro savdo insoniyat tarixida davlatlararo iqtisodiy aloqalarning eng qadimiy va eng muhim shakli sifatida shakllanib, globallashuv jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Erkin savdo hududlari, bojxona ittifoqlari, mintaqaviy integratsiya va transmilliy kompaniyalar faoliyati natijasida so'nggi o'n yilliklarda savdo hajmlari misli ko'rilmagan sur'atlarda oshdi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi elektron tijorat, internet orqali xizmatlar eksporti kabi yangi segmentlarni yuzaga keltirib, savdo tuzilmasini tubdan o'zgartirdi. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishlari, "Yashil kelishuv" tashabbuslari va uglerod izini kamaytirish talablari xalqaro savdo siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Bugungi geoiqtisodiy muhitda proteksionistik choralar, savdo urushlari va pandemiya oqibatlari global ta'minot zanjirlarining barqarorligini muhim masalaga aylantirdi. Bunday sharoitda xalqaro savdo nazariyalarini qayta ko'rib chiqish va ularning amaliy ko'rsatkichlarga mosligini tahlil qilish zarurdir. Mazkur maqola xalqaro savdo nazariyasining evolyutsiyasini, GATT va JST kabi xalqaro institutlarning shakllanish jarayonini hamda ular qanday qilib bugungi savdo tizimini shakllantirganini yoritadi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot, "yashil" savdo, global ta'minot zanjirlari va geoiqtisodiy raqobat kabi zamonaviy tendensiyalar tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro savdo haqidagi dastlabki nazariyalar Adam Smith [1] tomonidan ilgari surilgan "mutlaq afzallik" konsepsiyasi bilan boshlanadi. U mamlakatlar o'zida arzonroq ishlab chiqariladigan tovarlarni eksport



qilishi, yuqori xarajat talab qiladigan tovarlarni esa import qilishi kerakligini ta'kidlagan. Smith asarlarida har bir mamlakat o'zida samaraliroq ishlab chiqariladigan mahsulotni ishlab chiqishi va ortiqcha hajmni boshqa mamlakatlarga sotishi zarurligi batafsil tushuntirilgan.

Keyinchalik David Ricardo [2] "nisbiy afzallik" nazariyasini ishlab chiqib, mamlakatlar o'rtasidagi mehnat unumdorligidagi farqlar savdo aloqalarining asosiy omili ekanini asoslab berdi. XX asr boshlarida Heckscher–Ohlin modeli ishlab chiqilib, u mehnat va kapital kabi ishlab chiqarish resurslarining nisbati asosida xalqaro savdo yo'nalishlarini izohladi.

Keyingi yillarda Paul Krugman va Elhanan Helpman [3] tomonidan ishlab chiqilgan "yangi savdo nazariyasi" mahsulotlar differensiasiyasi va miqyos samaralarini e'tiborga olib, savdo oqimlarining faqat rivojlanayotgan emas, balki sanoatlashtirilgan mamlakatlar o'rtasida ham jadallashganini ko'rsatdi.

Maykl Porter [4] tomonidan ilgari surilgan "raqobat ustunligi" konsepsiyasi esa xorijiy bozorlarda muvaffaqiyat mamlakatning innovatsion salohiyati, klaster siyosati va korporativ strategiyasiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli yondashuv, nazariy va amaliy tahlil, induksiya va deduksiya, shuningdek, qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umumiy iqtisodiy nazariyadan ma'lumki, ishlab chiqarish masshtabi kengaygan sari tovarning tannarxi pasayib boradi. Masshtab samarasi orqali ishlab chiqarish omillari bilan bir xil yoki deyarli bir xil ta'minlangan mamlakatlar o'rtasidagi savdo izohlanadi. Shu bilan birga, masshtab samarasi texnologik jihatdan bir-biriga yaqin, hatto bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan mamlakatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarini ham tushuntirib beradi.

Masshtab samarasi (economies of scale) — ishlab chiqarishning shunday rivojlanish bosqichiki, bunda ishlab chiqarish omillari sarfining bir birlikka oshishi natijasida ishlab chiqarish hajmi bundan ko'proq birlikka ortadi (1-jadval).

1-jadval. Masshtab samarasi

Mehnat (soat)	4	5	6	7	8	9	10	11
Tovar (dona)	1	2	3	4	5	6	7	8
1 tovarga qilingan sarf	4.00	2.50	2.00	1.75	1.60	1.50	1.43	1.38

Masshtab samarasi mamlakatdagi tarmoq va korxonalarning raqobat bozoridagi harakati hamda faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda tashqi va ichki masshtab samaralariga ajratiladi [5].

Tashqi masshtab samarasi — bu butun tarmoq miqyosida ishlab chiqarish hajmining oshishi natijasida alohida firma doirasida tovar birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarning kamayishidir.

Ichki masshtab samarasi esa firma doirasida ishlab chiqarish hajmini kengaytirish orqali tovar birligiga sarflanadigan xarajatlarning kamayishini bildiradi.

Tashqi masshtab samarasi shuni anglatadiki, har bir firmaning hajmi o'zgarmagan holda, bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan firmalar soni ortadi. Bunday holatda bozor yetarli darajada raqobatbardosh bo'lib qoladi. Natijada bu model asosidagi savdo qonuniyatlari xalqaro savdoning klassik nazariyalariga yaqinlashadi, ya'ni eksportyorlar o'zlari ta'sir ko'rsata olmaydigan bozordagi narxda istalgan miqdorda tovar sotish imkoniyatiga ega bo'ladi [6].

Ichki masshtab samarasi esa ishlab chiqarish miqdori o'zgarmagan holda tovar ishlab chiqaruvchi firmalar sonining kamayishini nazarda tutadi. Bu holat aksariyat hollarda nosog'lom raqobatni keltirib chiqaradi, chunki ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlarining narxiga bevosita ta'sir ko'rsata oladi va narxni pasaytirish orqali sotish hajmini oshirishi mumkin. Ichki masshtab samarasi ekstremal holatda sof monopoliya shaklida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, xalqaro savdoda sof mukammal raqobat holati juda kam uchraydi. Buning sababi — jahon xomashyo va tayyor mahsulotlar bozorining allaqachon taqsimlab olingani hamda xalqaro bozorlarda o'ziga xos oligopoliya va monopoliya shakllarining vujudga kelganidir. Monopolistik raqobat asosidagi savdo nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olim Pol Krugman [7] hisoblanadi.

Agar X — ma'lum firmaning sotish hajmi, S — tarmoqdagi umumiy sotish hajmi, n — tarmoqdagi firmalar soni, b — firmaning o'z tovari narxiga bog'liq ravishda bozordagi ulushini ko'rsatuvchi talab o'zgaruvchisi, P — mazkur firma tovari narxi, P^* — raqobatchi tovarlarning o'rtacha narxi bo'lsa,

$$X = S[(1/n) - b \cdot (P - P^*)] \quad (1) \text{ bo'ladi.}$$

Agar firma o'z tovarlarini o'rta narxda yuqori sotsa ($P > P^*$), uning bozordagi ulushi (S/n) kam bo'ladi ($X < (S/n)$). Agar firma o'z tovarlarini o'rtacha narxdan past narxda sotsa ($P < P^*$), uning bozor ulushi ko'proq bo'lishi kerak ($X > (S/n)$).

Monopolistik raqobatning xalqaro savdoga ta'sirini aniqlash uchun, eng avvalo, firmalar soni va ularning tovar narxlari orasidagi uchta asosiy o'zaro bog'liqlikni aniqlash kerak. Firmalar soni qanchalik ko'p bo'lsa, har bir firma ishlab chiqaradigan tovar hajmi shunchalik kam bo'ladi, natijada o'rtacha xarajatlar ortib boradi. Firmalar soni qanchalik ko'paysa, raqobat darajasi shunchalik yuqori bo'ladi va tovar narxi pasayadi. Agar narx o'rtacha narxdan yuqori bo'lsa, bozordagi firmalar soni ortadi, aks holda kamayadi. Monopolistik raqobat modelida dastlabki ikki bog'liqlik muhim hisoblanadi. Xalqaro savdo esa tovar sotish bozorlari sig'imini oshiradi. Firmalar soni va bir firmaga to'g'ri keladigan o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi chiziqli tenglama bilan ifodalanadi.

$$S^* = (F/X) + c, \quad (2)$$


$$S^* = n(F/S) + c, \quad (2a)$$

Bu yerda S^* — o'rtacha xarajatlar, F — doimiy xarajatlar, c — firmaning chegaraviy xarajatlari.

Formuladan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish hajmi o'z navbatida sotish hajmi ortib borgan sari firmaning o'rtacha xarajatlari kamayib boradi, chunki doimiy xarajatlar yanada ko'proq tovarlar soniga taqsimlanadi. Bozor muvozanat holatida bo'lgan sharoitda har bir firmaning tovar narxi bir xil bo'ladi, ya'ni $R = R^*$. Ushbu holatda birinchi formula $X = S/n$ ko'rinishiga keladi. X qiymatini ikkinchi formulaga qo'ysak, 2a formula hosil bo'ladi. Bu formuladan ko'rinadiki, tarmoqda firmalar soni qanchalik ko'p bo'lsa, o'rtacha xarajatlar shunchalik ortib boradi. Firmalar soni o'zgarmagan holda sotish hajmining ortishi esa o'rtacha xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

Tarmoq ichidagi savdo — bu mamlakatlar o'rtasida bir tarmoqning differensiyalashgan mahsulotlari bilan amalga oshiriladigan savdodir. Tarmoqlararo savdo esa mamlakatlarning turli tarmoqlarida ishlab chiqarilgan gomogen mahsulotlari bilan savdo qilishni anglatadi. Tarmoq ichidagi savdo, asosan, differensiyalashgan tovarlar bilan amalga oshiriladi, biroq ba'zi hollarda gomogen tovarlar bilan ham sodir bo'lishi mumkin.

Bunga sabab sifatida transport xarajatlarini qisqartirish yoki mavsumiy farqlarni keltirish mumkin. Masalan, 1 va 2 mamlakatlarda bir xil tovarni ishlab chiqaruvchilar (S, S') va iste'molchilar (D, D') jug'rofiy jihatdan rasmdagidek joylashgan. SD' masofa $D'S'$ masofadan sezilarli darajada qisqa bo'lganligi sababli, ikkinchi mamlakat uchun tovarni o'z ishlab chiqaruvchisidan sotib olishdan ko'ra xorijdan import qilish foydaliroq bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Tarmoqlararo savdo


Shimoliy va janubiy yarim sharlarda yil fasllari turli paytlarga to'g'ri keladi. Masalan, Braziliya o'zining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'im davrida AQShga eksport qiladi, AQShda yig'im mavsumi boshlanganida esa Braziliyadan emas, o'z ichki bozorida mahsulot sotib oladi.

Differensiyalashgan tovarlar bilan tarmoq ichidagi savdoning sabablari quyidagilardan iborat: iste'molchilarning istak va xohishlari turlicha; kesishuvchi talab mavjudligi; keng ko'lamda ishlab chiqarish effekti.



Kesishuvchi talab nazariyasi xalqaro savdoni talab nuqtayi nazaridan tushuntiruvchi kam sonli nazariyalardan biridir. Ushbu nazariyaga ko'ra, mamlakat eksporti importyor mamlakatdagi talabga bog'liq bo'ladi. Juda kam hollarda tovarlar faqat eksport uchun ishlab chiqariladi. Aksariyat hollarda tovarlarning asosiy qismi ichki bozorda sotiladi. Ichki iste'mol to'liq qondirilgandan keyingina bu tovarlar eksport qilinadi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda tovar sotishda, talab tarkibi o'z mamlakatidagi talab tarkibiga o'xshash bo'lgan davlatni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikki mamlakatdagi talab tarkibi, odatda, aholi daromad darajasiga bog'liq bo'ladi. Daromad qanchalik yuqori bo'lsa, sifatli tovarlarga bo'lgan talab shunchalik ortadi. Kesishuvchi talab nazariyasi [8] shuni anglatadiki, turli mamlakatlardagi iste'molchilarning daromadlari va istak-xohishlari o'xshash bo'lgani sababli, har bir mamlakat o'zida ishlab chiqarish tajribasi shakllangan, ichki bozorda muvaffaqiyatli sotilayotgan tovarlarni eksport qilishda ustunlikka ega bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Kesishuvchi talab

Nazariyaning grafik ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi: faraz qilaylik, ikki mamlakat mavjud. Birinchi mamlakatda daromad darajasi A dan C gacha, bu daromad oralig'ida sotiladigan tovarlar sifati A' dan C' gacha bo'ladi. Ikkinchi mamlakatda esa daromad darajasi B dan D gacha, bu daromad darajasida ushbu mamlakatda sotiladigan tovarlar sifati B' dan D' gacha. Shu sababli ikki mamlakat o'rtasidagi savdo sifati B' dan C' gacha bo'lgan tovarlar bilan amalga oshadi, chunki aynan shu oraliqda ikki mamlakat iste'molchilarining talabi kesishadi.

Tahlil qismida xalqaro savdoni tushuntiruvchi nazariyalar amaliy misollar yordamida o'rganildi va ularning hozirgi davrda qanday ishlashi ko'rsatildi. Eksport va import oqimlari an'anaviy mutlaq hamda nisbiy afzallik nazariyalari doirasida izohlanar ekan, yangi savdo nazariyasining elementlari — masshtab samarasi, mahsulot differensiallashuvi va monopolistik raqobat — ham muhim omil sifatida ta'kidlandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish miqyosi kengaygan sari o'rtacha xarajatlar kamayadi, bu esa ichki va tashqi masshtab samaralari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Xarajatlarning qisqarishi eksport hajmining ortishiga, shuningdek, mintaqaviy bozorlar o'rtasidagi raqobatning kuchayishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, xalqaro savdoning samaradorligini ta'minlash uchun mamlakatlar nafaqat resurslarga asoslangan an'anaviy afzalliklarga, balki ishlab chiqarish miqyosini kengaytirish, mahsulotlarni diversifikatsiya qilish, talabni chuqur o'rganish hamda raqobatbardosh korxonalar klasterlarini shakllantirishga ham e'tibor qaratishlari zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ishlab chiqarish miqyosi kengaygan sayin o'rtacha xarajatlar pasayadi, bu esa savdo hajmining oshishiga olib keladi va hatto o'xshash resurslarga ega mamlakatlar o'rtasida ham savdoni rag'batlantiradi. Monopolistik raqobat modelida savdo bozorlari kengayadi, iste'molchilar talabi xilma-xil mahsulotlar bilan to'liqroq qondiriladi. Tarmoqlar darajasida sanoatning umumiy o'sishi xarajatlarni kamaytirishga (tashqi masshtab samarasi), korxona darajasida esa ishlab chiqarish hajmi ortgani sari bir birlik mahsulot tannarxining pasayishiga (ichki masshtab samarasi) olib keladi. Har ikkala omil eksport salohiyatining oshishiga xizmat qiladi.



Daromad darajalari va iste'molchilar didlarining o'xshashligi eksport va import tuzilmasini belgilovchi asosiy omillardandir. Differensiyalashgan mahsulotlar bilan savdo nafaqat tovar turlarining ko'payishiga, balki bozor raqobatining kuchayishiga ham sabab bo'ladi. Raqamli texnologiyalar, "yashil" standartlar, logistika zanjirlarining qayta shakllanishi va proteksionistik tendensiyalar xalqaro savdo tizimida yangi qoidalarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayonlar kichik va rivojlanayotgan davlatlar uchun ham imkoniyat, ham xavf-xatarlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.
2. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817.
3. Helpman E., Krugman P. Market Structure and Foreign Trade: Increasing Returns, Imperfect Competition, and the International Economy. – Cambridge, MA: MIT Press, 1985.
4. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
5. Кругман П. Международная экономика. 5-е изд. СПб.: Питер. 2003 г
6. Киреев А. Международная экономика. В 2-х ч. М.: 2007 г
7. Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. – 11th ed. – Boston: Pearson Education, 2018.
8. Samuelson P., Nordhaus W. Economics. – 20th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2019.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100